

## KO'XITANG TOG' TIZMASINING TARIXDA TUTGAN O'RNI VA AHOLISI XO'JALIGI

*Akbarov Muzaffar*

*TerDU tarix fakulteti 3-kurs talabasi*

*Yusupov Dilshodbek*

*TerDU tarix fakulteti 3-kurs talabasi*

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada Ko'xitang tog' tizmasining tarixda tutgan o'rni va shu hududlarda vujudga kelgan o'ziga xos bo'lgan jihatlari tarixiy manbalar va ilmiy izlanishlar tufayli o'rganilgan. Qolaversa Ko'xitang tog' tizmasida joylashgan ba'zi qishloqlar aholisi xo'jaligi ham yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Ko'xitang ( tojikcha: Tor –tog'), Munchoq, Chilonzor, Panjob, Xomkon, Sherjon (qishloq nomlari)

**Annotation:** In this article, the role of the Kokhitang mountain range in history and the unique aspects that have arisen in these areas are studied thanks to historical sources and scientific research. In addition, the economy of some villages located in the Kokhitang mountain range is also covered.

**Keywords:** Ko'hitang (Tajik: Tor - mountain), Munchok, Chilonzor, Punjab, Khomkon, Sherjon (village names)

Tarixdan yaxshi ma'lumki, ko'pchilik insonlar dastlab daryo bo'ylarida keyinchalik g'orlarda istiqomat qilishgan. Bunga asosiy sabab iqlimning o'zgarishi odamlarni yangicha hayotga undadi va bu o'z navbatida yangi manzilgohlarning vujudga kelishiga zamin yaratdi. Shunday bir o'ziga xos manzilgohlar tizimiga ega bo'lgan Ko'xitang tog' tizmasining ham tarixda o'rni beqiyos sanaladi. Ko'xitang (tojikcha Ko'x-tog', tang-tor) manosini anglatadi. Bu tog' Amudaryo vodiysidan Sherobod daryosigacha qariyb 100 km ga cho'zilgan bo'lsada o'ziga xos va mos bo'lgan madaniyatlar tizimiga egaligi bilan boshqalardan ajralib turadi. Manbalarda keltirilishicha “Zarautsoy Surxondaryo viloyati Sherobod tumani hududidagi Ko'xitang tog'ining shimoliy-sharqiy yonbag'rida Termiz shahridan 100-110 km shimoliy-g'arbda joylashgan bo'lib, juda qulay tabiiy sharoitga ega. Yana shuni alohida qayd etish lozimki “ mahalliy xalq orasida “Zarautkamar” nomi bilan mashhur bo'lgan g'orda rasmlarning eng qadimgilari chizilgan. Bular bugungi kunda O'rta Osiyo hududidagi eng qadimgi va mashhur rasmlardir. Zarautkamar rasmlari 1939-yil ovchi I.F.Lomaev tomonidan topilgan”<sup>1</sup>. Ko'rinib turganidek suratlar ushbu hududda yashagan insonlar tomonidan chizilgan va hozirgi kungacha saqlanganligi kishini lol qoldiradi. Eng qiziq jihati shundaki dunyoga taniqli rassom Ro'zi

Choriyev ham shu tog' tizmasidagi "Poshxurd" qishlog'ida tug'ilgan. Bundan shuni anglasa bo'ladiki tarixiy an'ana yo'qolib ketmagan va avloddan-avlodga meros tarzida o'tgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Ko'xitang bo'ylab o'rganish ishlarini olib borar ekanmiz, juda ko'plab arxeologik yodigorliklarni uchratishimiz mumkin. "Amudaryoning so'l sohil hududlari va Boysun-Ko'xitang tog' oldi vohalarida aniqlangan bronza davri yodigorliklari Dashtli-Sopoli madaniyati deb ataladi"<sup>2</sup>. Bronza davri yodigorliklari aniqlanishi va o'rganilishi nihoyatda muhim masaladir. Chunki bronza davrida bizning hududimizda davlatchilik mavjud bo'lganligi ko'plab ilmiy tadqiqotlar orqali isbotlangan. "Sherobod tumani Ko'xitang tog' tizmasi bo'ylab, Poshxurt qishlog'i etaklarida tabiiy buloqlar mavjudligi va buloqlar bo'yida bronza davri yodigorliklarining joylashganligi aniqlandi. Shulardan biri Tillabuloq yodigorligidir. Yodigorlik 2005-2010 yillar mobaynida to'liq o'rganildi. Natijada bu yerda, Oks sivilizatsiyasiga oid qishloq joylashganligi aniqlandi. Tillabuloq sopollarida ham piktografik belgilar mavjud"<sup>3</sup>. Bundan tashqari E.V. Rtveladze tomonidan 1974-yilda G'ozdagi ilk temir davri yodigorligini o'rgandi. Ko'xitang tog' tizmasida bunday turdagi yodigorliklarning uchrashi va ularning tarixshunosligi, shu hududa yashayotgan insonlarning xo'jaligi va moddiy madaniyatiga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi.

Ko'xitang tog'idagi qishloqlarni geografik joylashuviga e'tibor beradigan bo'lsak uni shimoliy, markaziy va janubiy qismlarga bo'lish mumkin. Shimoliy qism Sho'robdan to Munchoqgacha bo'lgan hududni o'z ichiga olgan. "Ko'xitang tizmasining markaziy qismlaridagi Panjobsoy, Uzunsoy, Xojanqon vodiylarida 20 ta qishloq joylashgan. XX asr boshlarida bu qishloqlar Xatak amlokdorligi tarkibida bo'lgan. Xatak amlokdorligi Boysun bekligining eng yirik ma'muriy birikmasi sanalib temir darvozadan to Sherobod shimolidagi Nondahanagacha bo'lgan yerlari o'z ichiga olgan edi"<sup>4</sup>. Uning tarkibidagi Chilonzor, Panjob, Xomkon, Sherjon qishloqlari aholisi xo'jaligi va suv bilan bog'liq masalalariga e'tibor qaratsak. "Bugungi kunda Chilonzor bo'lak mahallaga aylantirilib, unga Xomkon, Uzunquduq va Besherkak qishloqlari ham kiritilgan. Asosiy suv manbayi Sheroboddaryodir"<sup>5</sup>. Olib qaraydigan bo'lsak Ko'xitang tog'i va unga yondosh hududlarda yashovchi aholi asosan chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik sohalari bilan shug'illanadi. Chunki iqlim sharoiti, suv manbayi, yerning melorativ holati shunga mos tushadi. Yuqorida keltirilgan qishloqlar orasida Sherjon qishlog'i o'zining tarixdagi o'rni va aholisi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti bilan ajralib turadi. Uning toponomikasiga to'xtalsak bunda turli fikrlar bor. Misol uchun "Sher ya'ni yo'lbars va jon, sherlarning yaxshi ko'rgan makoni degan ma'noni bildiradi. Baland tog' etaklari, u yerdagi g'orlar, o'rmonzorlar, daralar turli hayvonlar jumladan sherlarning yashashi uchun

qulay bo'lgan. Shuning uchun bir vaqtlar bu hududa sherlar ko'p bo'lgan ekan. Shundan qishloqning nomi Sherjon deyilgan"<sup>6</sup> Aholisi asosan chorvachilik, qisman bog'dorchilik ishlari bilan shug'illanadi. Ko'xitang tizmasi bo'ylab qishloqlarni o'rganar ekanmiz aholisi mehmondo'stligi, xushmuomilaligi va o'ziga xos bo'lgan madaniyatiga guvoh bo'lamiz. Dehqonchilik va chorvachilikda umuman nabodot va inson uchun muhim sanalgan narsa suvdir. Ko'xitang tog' tizmasi qishloqlarini sug'orish va undan foydalanishda aholi yer osti va soylardan foydalanishadi. Ilmiy izlanishlardan ma'lumki "Ko'xitang tizmasining g'arbiy tamonlari tog'larning shimoliy yon bag'irlaridan oqib tushgan suvlarning hammasi tog' oldi hududlarni sug'orishga sarf bo'ladi yoki yer osti suvlariga borib qo'shiladi"<sup>7</sup>. Ko'xitang tog'i tizmasida joylashgan Panjob va Xomkon qishloqlarini olib qarasaq qishloqlarda ko'proq soylar va buloqlar borligi o'z navbatida shu hududlar rivoji uchun zamin yaratib kelmoqda.

Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlash lozimki Ko'xitang tog' tizmasi tarixini ko'plab tarixiy mabalar va arxeologik topilmalar orqali tarixini o'rganish va o'z navbatida u hududlarda yashayotgan odamlarni xo'jaligining lokal xususiyatlari bilan tanishish, qolaversa qishloqlar toponomikasi va sug'orilish usullari kabi yangi ma'lumotlarni o'rganish muhim sanaladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

- 
1. O'zbekiston tarixi Xrestomatiya 1-jild 54-bet Toshkent-2013
  2. A.S. Sagdullayev O'zbekiston tarixi 1-jild 86-bet Toshkent-2015
  3. A. Boqiyev, A. Shaydullayev, Z. Yo'ldosheva Oks sivilizatsiyasi 135-bet T-2015
  4. Umarov Ikrom Ibragimovich Ilmiy ish "Ko'xitang qishloqlari aholisi nomoddiy madaniyatining etnik va lokal xususiyatlari" 13- bet. Termiz-2022
  5. Umarov Ikrom Ibragimovich ilmiy ish "Ko'xitang qishloqlari aholisi nomoddiy madaniyatining etnik va lokal xususiyatlari" 14- bet. Termiz-2022
  6. Shoira Davlatova va Manzura Davlatova "Sherjon qishlog'i tarixi" 13-bet. Toshkent-2007
  7. Bo'riyev Soatmo'min Donayevich "XX-asrda Surxon-Sherobod vohasining sug'orilish tarixi" 25-bet. Termiz-2008.